

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA DIDAKTIKANING O’RNI

Munisa Qosimova Botirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO‘TAU II bosqich magistranti

Alisher Navoiy, nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun dunyo, sharq-u g‘arb xalqlarini o‘ziga rom etgan shoir. U kishining asarlarini hamma birdek sevib o‘qiydi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida shunday yozgan edilar: “Alisher Navoiy xalqimizning adabiyoti, madaniyati va siyosiy tarixida alohida o‘ringa ega bo‘lgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha`n-u sharafini dunyoga tarannum etgan o‘lmas so‘z san`atkordir”¹.

Navoiyning nafaqat boy ijodi, balki sermazmun hayoti ham biz yoshlar uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi, fidoiyligi barchamizga o‘rnak bo‘lishi lozim. U kishi mакtab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o‘zi madrasalar qurishda tashabbus ko‘rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o‘zining “Ixlosiya” madrasasi yonida mакtab ochib, bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo‘lgan mablag‘ ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o‘xshatadi va bu quyosh o‘z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya’ni hali ilmdan bexabar bo‘lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma’rifat beradi, deydi.

Alisher Navoiy ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ko‘proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma’rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi.

Hazrat Navoiyning so‘nggi buyuk asarlaridan biri nasriy pandnomaga yo‘nalishida yozilgan “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) dir. Bu asar Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa‘diyning “Guliston”, Kaykovusning “Qobusnomasi”, Nizomiy Aruzi Samarqandiyning “Chor maqola” kabi asarlari qatorida turadi. «Mahbub ul-qulub» asari oltmis yillik umri davomida hayotda ko‘rgan-kechirganlarini teran tahlil qilib, muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning kelgusi avlodlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir. Bu asar har bir odam umri davomida duch kelishi muqarrar bo‘lgan hayotiy muammolarga eng to‘g‘ri yechimlarni ta’sirli usulda berishi bilan yuksak daraja kasb etadi. Musajja’ san‘atining nodir namunasi sanalgan bu noyob asarning yaralishi sabablarini muallif quyidagicha izohlaydi: “Bu muqaddimotdin maqsad bukim, har ko‘y va ko‘chada yugurubmen va olam ahlidin har nav` elga o‘zumni yetkurusibmen va yaxshi-yamonning af’olin bilibmen va yamon- u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen. Xayr va sharrdin no‘sh va nish ko‘ksumga yetibdur va laim va karim zaxm va marhamin ko‘nglum dark etibdur. Va zamon ahlidin bayozi as‘hob va davron xaylidin ba‘zi ahbobki bu hollardin xabarsiz va ko‘ngullari bu xayr va sharrdin asarsizdur. Bu nav` ashob va ahbobg‘a intiboh qilmoq va alarni nav` bu holatdin ogoh qilmoq vojib ko‘rundiki, har toifa xisolidin vuquflari va har tabaqa ahvoldinshuurlari bo‘lg‘ayki, munosib el xizmatig‘a shitob qilg‘aylar va nomunosib el suhabatidin ijtinob vojib bilg‘aylar va bari el bila maxfiy rozlaridin so‘z demag‘aylar. Va shayotin makr-u firibidin boziy emagaylor. Har nav` el suhabat va xususiyatiki, alarg‘a havas bo‘lg‘ay, bu faqirning tajribasi alarg‘a bas bo‘lg‘ay”.

“Mahbub ul-qulub” asari Navoiyning umri davomidagi butun hayotiy kuzatishlari asosida yozilgan. Shu boisdan har bir ijtimoiy tabaqa aniq tasvirlangan.

¹ I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.:2008, 34-b.

Ushbu kitob orqali xalqimiz orasida allaqachon maqolga aylanib ulgurgan Navoiyning hikmatli so‘zlaridan bahramand bo‘lasiz. “Mahbub ul-qulub” asari ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlari bayon etilgani bilan ham qiziqarlidir.

Navoiy bu asarida sabr, qanoat, kamtarinlik, vafo, hayo, karam, saxovat, himmat, olivjanoblik, mardlik, hilm, do’stlik, ilmga amal qilish, shirinso‘zlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlarni ulug‘laydi, aksincha, baxillik, badfe’lllik, hasadgo‘ylik, chaqimchilik, xasislik, yolg‘onchilik, tamagirlilik, nodonlik, takabburlik, mayxo‘rlik, badnafslik kabi yomon illatlarni qattiq qoralaydi: “Chin so‘z – mo ‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar. Ko‘p so‘zlovchi – zeriktiruvchi. Kishi aybini gapiruvchi – o‘ziga yomonlik sog‘inuvchi. Agar so‘z go‘zallik ziynati bilan bezalmasa ham, unga chinlik bezagi yetarlidir! Yolg‘onchining gapi qanchalik chirolyi bo‘lsa, shunchalik qabihdir. Aqli odam yolg‘on gapirmas, ammo barcha rost gaplarni aytaverish ham to‘g‘ri emas”.

Navoiy xushmuomala, ochiq yuzli odamlarni maqtaydi: “Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so‘zidan el-yurtga xurramlik. Tilini tiyolgan odam – donishmand, oqil. So‘ziga erk bergen - ko‘p vaysagan odam – beandisha va pastkash. Yolg‘onchi Haq oldida gunohkor, xalq oldida sharmanda. Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”.

“Mahbub ul-qulub” uch qismidan iborat. Kitobning birinchi qismi “Xaloyiq ahvoli va af’oli va aqvolining kayfiyat” – xaloyiqning ahvoli va fe'l-atvori hamda so‘zlarining kayfiyatiga bag‘ishlangan 40 fasldan iborat bo‘lib, unda jamiyatning turli qatlam vakillari - odil podshohdan tortib oddiy navkargacha, shayxulislom va mudarrislar, shoirlaru mug‘anniylar, tijorat vakiliyu dehqonlarning fe'l-atvori, o‘ziga xos xarakter-xususiyatlari to‘g‘risida aniq fikr yuritadi, bu borada o‘zining ibratli mulohazalarini ilgari suradi.

Alisher Navoiyning fikriga ko‘ra, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.

Oltin, kumush etma kasb davlat kunidin,
Kim tortar adab ulusni davlat tunidin,
Gar yo‘qdir adab ne sud oltin uni din,
Elning adabi xushroq erur oltundin.

Ikkinci qismda – “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” – ya’ni, yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati tahlil qilingan. Axloqiy masalalar yetakchi o‘rin tutuvchi o‘n bobdan iborat bu qismda “tavba”, “qanoat”, “sabr”, “tavoze”, “odob”, “zikr”, “rizo”, “ishq” kabi zarur insoniy xislatlar talqin qilinadi. Ijodkor har bir insoniy fazilatni bayon etar ekan, shunga mos ravishda hikoyatlar, nasihatomuz baytlarni tanlab, ta’sirchanlikni oshirishga erishadi.

Uchinchi qism: “Mutafarriqa favoyid va amsol surati” – turli foydali maslahatlar, maqollar va pand-nasihatlarni qamrab olgan bo‘lib, tanbeh shaklida yozilgan. 120 dan ortiq tanbehdha muallif ochko‘zlik, baxillik, badxulqlik, takabburlik, xudbinlik singari inson xarakterida kuzatiladigan bir qancha salbiy fe'l-atvordagi xislatlarni keskin tanqid qiladi; odamiylik fazilatlari, komillikka yetaklovchi chin insoniy sifatlar xususida ibratli fikirlar bildiradi. O‘z fikrlarini turli mazmundagi hikoyat, hikmatli baytlar bilan asoslashga harakat qiladi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodidan, ayniqsa, maqollardan samarali foydalanish bilan birga, o‘zi ham ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, maqollarga yaqin bo‘lgan bir qancha hikmatlar yaratadi. Bu hikmatli so‘zlar xalq orasida shunchalar mashhur bo‘lib ketdiki, uni ko‘pchilik maqol deb bilishadi.

Alloma, ayniqsa, yoshlarga oid bo‘lgan yaxshi va yomon xislatlar haqida so‘z yuritildi va bularga quyidagilarni misol qilish mumkun:

Isrof qilish - saxiylik emas; o‘rinsiz sovurishni aqli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni - devona deydilar; yorug‘ joyda sham yoqqanni aqldan begona deydilar. Kimki xalqqa ko‘rsatib ehson bersa, u pastkash, saxiy emas. Yaxshiliklarni topmoq - yedirmoqdir; Ayblarni yashirmoq - kiydimoqdir.

Alisher Navoiy insonlardagi yomon illatlarning o‘rnini qanday qilib yaxshi xislatlarga aylantirishni aniq ko‘rsatib bergenlar va bu yozganlariga xam o‘zları doimo amal qilganlar.

Alisher Navoiy ilm haqida quyidagicha ta'riflaydi.

El aybini ayturg'a birovkim, uzatur til,
O'z aybini fosh aylagali til uzotur, bil.

Ya'ni ilm olib amal qilmagan kishi, misoli yerni xaydab urug' sepmaganga yoki urug' sepib, urug'idan hosil olmaganga o'xshaydi.

"Mahbub ul-qulub"dagi har bir tanbeh, bayt yoki qit'a hayotiy hikmat darajasiga ko'tarilganki, bu tanbehlar zamiriga xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi davomida to'plagan maqol va matallarining mazmuni singdirilgan.

Foydalanilgan adabiyot:

1. I. A. Karimov "Yuksak ma"naviyat-yengilmas kuch"T:,34-bet
2. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub".Yoshlar nashriyot uyi// Toshkent 2018-yil 117-bet
3. Mahmudova G: A.Navoiy "Mahbub ul-qulub" asaridagi hikoyatlarning g'oyaviy mohiyati. bitiruv malakaviy ish N:,2014-y 8-9-bet
4. saviya.uz